

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI  
O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Abdurasulova Xumora Qodirjon qizi**

*SamDCHTI Ingliz tili fakulteti talabasi*

Gmail: [abdurasulovaxumora64@gmail.com](mailto:abdurasulovaxumora64@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Hamroyev Sardor Akmaljon o‘g‘li**

*SamDCHTI Ingliz tili fakulteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda nazariy asoslar, bolalarning til o‘rganish psixologiyasi, o‘yinlarning pedagogik ahamiyati va o‘yinga asoslangan metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi ta‘lim muhitida erta yoshdagi til o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega bo‘lib, maktabgacha yoshda til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy qobiliyatlarni rag‘batlantirish zarur.*

**Kalit so‘zlar:** *Maktabgacha yosh, ingliz tili, til o‘rganish xususiyatlari, o‘yin metodlari, pedagogik innovatsiyalar, kommunikatika.*

**Kirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish mavzusi nafaqat zamonaviy tilshunoslik, balki pedagogika fanining eng faol o‘rganilayotgan sohalaridan biridir. Turli davlatlar tajribasidan ko‘rish mumkinki, erta yoshdan chet tilini o‘rgatish bolalarning kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. [12,35]

Tadqiqotlarning yana bir umumiy natijasi shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganishda bola yoshlikning oynali davrlarida o‘rgangan tillar nafaqat so‘z boyligini, balki til to‘g‘ri talaffuzini ham shakllantiradi. Bundan kelib chiqib, bolalarga tilni o‘rgatishda o‘yin metodlarining ahamiyati oshadi, chunki u yoshda bola o‘rganishda eng samarali vosita sifatida o‘ynaydi — bu ilmiy-tadqiqotlar va amaliy tajribalar orqali aniqlandi. [13, 82]

Maktabgacha yosh – til o‘rganish uchun qulay davr. Tilshunoslik va pedagogika fanlarida maktabgacha yosh (3–6 yosh) “sezgir (sensitiv) davr” deb ataladi. Bu davrda bolalarning eshitish xotirasi kuchli bo‘ladi; talaffuzni tez va tabiiy o‘zlashtiradi; chet tilni ona tili kabi qabul qilish qobiliyati yuqori bo‘ladi.

Mashhur tilshunos N. Chomskiy til o‘rganishda tug‘ma qobiliyat mavjudligini ta‘kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, bola tilni qoidalar orqali emas, balki tabiiy muhitda eshitish va takrorlash orqali o‘zlashtiradi. Kommunikativ yondashuv nazariyasi

Kommunikativ yondashuvga ko'ra, til:muloqot jarayonida;real vaziyatlar asosida;amaliy nutq orqali o'rgatish kerak.Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda so'z yodlatish emas balki gapirishga ehtiyoj tug'dirish muhim hisoblanadi.

Masalan:salomlashish (Hello, Hi); o'zini tanishtirish (My name is...)ranglar, o'yinchoqlar, hayvonlar haqida gapirish.Bu yondashuv bolalarda nutqiy faollikni oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning til o'rganish xususiyatlari. Tadqiqotlar natijasida, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'zlashtirishda ularning eshitish sezgirligi yuqori bo'lishi va amaliy kontekstlarda so'zlarni o'rganishga moyilligi oshishi aniqlandi. [8, 724] Shu bilan birga, Gafarova (2019) o'quvchilarning nutq rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhitning va boshqalar bilan muloqotning ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bola nutqni faqatgina o'rgatuvchidan o'rganmay, balki atrofidagi odamlar bilan faol muloqot orqali qabul qiladi.

Hozirgi kundagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha maktabgacha yoshdagi bolalarning o'rganish xususiyatlarini chuqur o'rganmasdan turib, samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish imkonsizdir. Masalan, bola uchun ona tilidan farqli ravishda chet tilini o'rganish — yirik intellektual va hissiy jarayon bo'lib, uni o'yinga asoslangan didaktik yondashuvlar orqali yaxshilash mumkin. Shu nuqtai nazardan, bola yangi so'zlar va iboralarni qiziqarli va interaktiv shaklda o'rganganida, o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada ortadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqni qo'llashda muloqotga moyil bo'ladi, va shu tariqa o'rgangan tilni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay boshlaydi. [10,113] Shu bois, aktiv nutq mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, til o'rganish jarayonida bolaning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi metodlar muhim ahamiyat kasb qiladi. Bolaning yoshiga mos ravishda o'zlashtirish jarayoni individual ravishda tashkil etilishi lozimligi ko'plab ilmiy manbalarda ta'kidlangan [12, 32]

O'zbekistonlik pedagog olimlar maktabgacha ta'lim bosqichini bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim davr deb hisoblaydilar. Aynan shu yosh davrda bolalarda tilga bo'lgan qiziqish, taqlid qilish qobiliyati va eslab qolish xususiyati kuchli rivojlanadi. Shu sababli xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini erta yoshdan o'rgatish samarali natija beradi.Pedagogika sohasidagi o'zbek olimlaridan N.M. Abdullaeva bolalar nutqining rivojlanishida muloqot muhitining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar tilni majburiy o'rganish orqali emas, balki tabiiy muhit, o'yin va kundalik faoliyat jarayonida o'zlashtiradilar. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o'rgatishda bolaga tushunarli, qiziqarli va hayotiy vaziyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish muhimdir.Shuningdek, D.B. Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'limda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynashini qayd etadi. Olimning ta'kidlashicha, chet

tilini o'rgatishda didaktik o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar va harakatli mashg'ulotlar orqali berilgan bilimlar bolaning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bu yondashuv bolaning psixologik holatiga mos keladi va til o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. O'zbek psixolog-pedagog olimlaridan G.Q. Qodirova maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga to'xtalar ekan, ularning abstrakt tafakkuri hali to'liq shakllanmaganini ta'kidlaydi. Shu sababli ingliz tilini o'rgatishda ko'rgazmalilik, tasviriy vositalar, ranglar, predmetlar va harakatlar bilan bog'liq mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullar bolaning idrokini faollashtirib, til materialini oson qabul qilishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'zbek metodistlari maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda ona tiliga tayanish tamoyilini ham muhim deb hisoblaydilar. Ya'ni, yangi so'z va tushunchalar bolaning ona tilidagi bilimlari bilan bog'lab tushuntirilsa, o'zlashtirish jarayoni yanada samarali bo'ladi. Bu yondashuv bolada tilni solishtirish, farqlash va anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **O'yinning bolalar rivojlanishidagi ro'li va pedagogik ahamiyati**

O'zbekistonlik pedagog olimlar o'yinni maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi sifatida e'tirof etadilar. Ularning fikricha, o'yin bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida, xususan, aqliy, jismoniy, ijtimoiy va hissiy kamolotida muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, kattalar faoliyatini taqlid qiladi va ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Pedagog olimi G.Q. Qodirova o'yinning bolaning psixik rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, o'yin faoliyati orqali bolaning tasavvuri, tafakkuri va nutqi faol rivojlanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, o'yin bolada mustaqil fikrlash, muammo yechish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar bolaning ijtimoiy tajribasini boyitib, muloqot madaniyatini rivojlantiradi. O'zbek pedagog olimi D.B. Yo'ldoshev o'yin faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish pedagogik jihatdan muhim ekanligini qayd etadi. Olimning ta'kidlashicha, didaktik o'yinlar orqali berilgan bilimlar bolalar tomonidan osonroq va barqarorroq o'zlashtiriladi. O'yin jarayonida bola majburiylikni his qilmaydi, aksincha, faol ishtirok etishga intiladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, N.M. Abdullaeva o'yinning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, o'yin jarayonida bolalarda ijtimoiy xulq-atvor, jamoada ishlash, qoidalarga rioya qilish va mas'uliyat hissi shakllanadi. Jamoaviy o'yinlar bolalarda hamkorlik, o'zaro yordam va hurmat kabi ijtimoiy fazilatlarni rivojlantiradi. Pedagog olim R.H. Jo'raev esa o'yinni shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, o'yin bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi. O'yin orqali

pedagog bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlarini kuzatib, ta'lim-tarbiya jarayonini shunga mos ravishda tashkil etishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv va nutqiy rivojlanishi uchun eng samarali vosita hisoblanadi. [3, 444] O'yinga asoslangan pedagogik yondashuvlar nafaqat bolalarning nutq faolligini oshiradi, balki ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham rag'batlantiradi.

Bu fikrlarni tasdiqlovchi yana bir muhim tomon shundaki, o'yin pedagogika jarayonida bolaning motivatsiyasini oshiradi, yengil va qiziqarli sharoit yaratadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'yin orqali ta'lim olgan bolalarda qiziqish darajasi an'anaviy uslub bilan o'qitilganlarga nisbatan 35-40% yuqori bo'ladi. [6, 56] Bu esa o'yinga asoslangan metodlarni pedagogik jihatdan ustun deb hisoblashga asos bo'ladi. Shuningdek, bola o'yin davomida tilning ko'plab aspektlarini — talaffuz, so'z boyligi, grammatik tuzilma, muloqot madaniyati — o'rganadi, bu esa ularning tilga bo'lgan qobiliyatlarini mustahkamlaydi [1, 59] Ko'plab o'rganishlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'yinlarning pedagogik ahamiyati bolalarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham namoyon bo'ladi. Bu masala maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilini o'rganishda jiddiy ijobiy natijalar berishini dalillaydi. O'yinga asoslangan metodlarning chet tilini o'rgatishda qo'llanilishidir. O'yin faoliyatiga asoslangan ta'lim nazariyasi Psixolog L.S. Vygotskiy ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan. Unga ko'ra, bola bilimni eng samarali tarzda o'yin orqali o'zlashtiradi. Shuning uchun ingliz tilini o'rgatishda: harakatli o'yinlar; qo'shiqlar; she'rlar; rolli o'yinlardan foydalanish zarur.

O'yin:

- bolaning qiziqishini oshiradi;
- majburiylik hissini yo'qotadi;
- tilni tabiiy ravishda singdiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'rish, eshitish va harakat orqali tez o'rganadi. Shu bois ingliz tilini o'rgatishda:

- rasmlar;
- kartochkalar (flashcards);
- videolar;
- jismoniy harakatlar (TPR – Total Physical Response) qo'llaniladi

TPR nazariyasiga ko'ra, bola:

- buyruqlarni eshitadi (Stand up, Sit down);
- harakat orqali bajaradi;
- so'zni ongida mustahkamlaydi.

Tadqiqotlarda o'yin yondashuvining chet tilini o'rgatishda samaradorligi ko'p marotaba tasdiqlangan. Harmer (2015) ham, Kumar (2017) ham o'yinlarning til o'rganishda faollikni oshirish, stressni kamaytirish va muloqotni rag'batlantirishda nihoyatda samarali ekanligini ko'rsatishgan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlar — bu nafaqat o'quv vositasi, balki ular tilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradigan muhitdir. Misol uchun, "Simon Says", "Memory Game", shuningdek, rol o'yinlari bolalarda grammatika va so'z boyligini mustahkamlashda juda samarali ekanligi ko'p tadqiqotlarda qayd etilgan. [6, 60] O'yinlarga asoslangan darslarda bolalar o'zlarini erkin his qilishadi, stress kamayadi, bu esa ularning nutq va ko'nikmalarini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, interaktiv texnologiyalarni qo'shish pedagogik jarayonni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik orqali bolaning o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlaydi. [2, 98]

Nashr etilgan tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, o'yinga asoslangan metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'rganishni nafaqat samarali, balki ijobiy va motivatsion jarayonlarga aylantiradi.

#### **Xulosa.**

Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik o'yinlarga asoslangan metodlarni keng qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi. Shu bilan birga, til o'rganish jarayonida bolalarning ongli va faol qatnashuvini ta'minlash eng muhim omildir. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda tilni tabiiy va o'z vaqtida, samarali o'zlashtirishga imkon beradi, shuningdek, ularning ijodiy qobiliyatlari va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu sababli, pedagoglarga bu yosh bosqichida o'yin metodlarini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni faol tatbiq qilish yo'nalishida izlanishlarini davom ettirish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Berk L.E. Child Development. – New York: Pearson Education, 2013. – 640 p.
2. Elkonin D.B. The Role of Play in Child Development // Journal of Educational Psychology. – USA, 2011. – Vol. 103, №3. – P. 444–454.
3. Ginsburg K.R. The Importance of Play in Promoting Healthy Child Development and Maintaining Strong Parent-Child Bonds // Pediatrics. – USA, 2007. – Vol. 119, №1. – P. 182–191.

5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Education, 2015. – 448 p.
6. Jones L. Impact of Game-Based Learning in Preschool English Acquisition // Language Education Research. – UK, 2019. – Vol. 7, №1. – P. 56–70.
7. Kavakli M. Early Childhood Language Acquisition and Development // International Journal of Early Years Education. – UK, 2015. – Vol. 23, №2. – P. 112–122.
8. Klimova G. Early Foreign Language Learning: Theoretical and Practical Approaches // Journal of Language Teaching and Research. – Czech Republic, 2016. – Vol. 7, №4. – P. 724–731.
9. Kumar R. Effective Use of Games in Teaching English as a Second Language to Young Learners // TESOL Quarterly. – USA, 2017. – Vol. 51, №3. – P. 601–615.
10. Marini A. Young Children and Language Learning: Implications for Teaching // Child Language Teaching and Therapy. – UK, 2017. – Vol. 33, №2. – P. 113–129.
11. Smith A., Lee C. Interactive Technologies in Early Language Learning // Journal of Educational Technology. – USA, 2022. – Vol. 44, №4. – P. 231–245.
12. Snow C.E. Language Development in Early Childhood // Annual Review of Applied Linguistics. – Cambridge, 2018. – Vol. 38. – P. 3–15.
13. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 2004. – 159 p.